

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining Axborot-tahlil va resurs markaziga tashrif

2020 yilning 4 mart kuni Gidromeliorasiya fakulteti "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrasini "Evrikaa" to'garagining iqtidorli talabalar bilan Ozbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Axborot-tahlil va resurslar markaziga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida markazi direktori Ahmadjonov V va R.Saidov va boshqa mutahassislar bilan davra suhbatini bo'lib o'tdi. Davra suhbatida Suv xo'jaligini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini loyihasi va Smart Water mavzulari bo'yicha taqdimot bo'lib o'tdi. Davra suhbatini davomida talabalar tomonidan Smart Water texnologiyasi bo'yicha juda ko'p qiziqarli savollar yuzasidan baxs munozara shaklida bo'lib o'tdi.



O'tkazilgan davra suhbatini jarayonida iqtidorli talabalar va "Gidromeliorasiya" fakulteti dekani A.M.Fatxulloev va "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrasini doktoranti L.Samievlar tomonidan bir qator savollar berilib, uchrashuv muhokamaga boy, qiziqarli va yuqori saviyada o'kazildi. Davra suhbatini oxirida Gidromeliorasiya fakultet dekani A.M.Fatxulloev va Gidravlika va gidroinformatika kafedrasini doktoranti PhD L.Samiyevlar Markaz direktori V.Ahmadjonovga keng qamrovli davra suhbatini uchun minnatdorchilik bildirildi.

TIQXMMI matbuot xizmati